



Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti



TASHENEV
UNIVERSITY



“Alisher Navoiy va XXI asr”

10-ULUSLARARO KONFERANSI

Toshkent-Shimkent, 2025-yil 6-fevral

“Әлішер Науаи және XXI ғасыр”


10-ХАЛЫҚАРАЛЫҚ КОНФЕРЕНЦИЯ

Ташкент-Шымкент, 6 ақпан 2025 жыл

“Alisher Navo'i and the 21st century”

10th INTERNATIONAL CONFERENCE

Tashkent-Shymkent, February 6, 2025



**Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
Qozog'iston Respublikasi Jumabek
Tashenev nomli universitet**

«ALISHER NAVOIY VA XXI ASR»

**mavzusidagi 10-uluslararo konferansi
materiallari**

2025-yil 6-fevral

Toshkent – Chimkent – 2025

UO'K: 821.161.1=512.133

KBK: 83.3 (50')

A 51

Mas'ul muharrirlar:

Shuhrat SIROJIDDINOV,

filologiya fanlari doktori, akademik
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti rektori

Kanat BAYBOLOV,

Jumabek Axmetuli Tashenev nomli universitet rektori,
texnika fanlari doktori, professor

Tahrir hay'ati:

Boqijon To'xliyev (O'zbekiston), Nurboy Jabborov (O'zbekiston), Parida Bayneeva (Qozog'iston), Kemal Yavuz Ataman (Turkiya), Yashar Qosim (Ozarbayjon), Islam Jemeney (Qozog'iston), Farhod Rahimiy (Eron), Sholpan Arzimbetova (Qozog'iston), Karomat Mullaxo'jayeva (O'zbekiston), Janna Botabaeva (Qozog'iston), Baxtiyor Fayzullayev (Tojikiston), Dilnavoz Yusupova (O'zbekiston), Nozliya Normurodova (O'zbekiston), Shahlo Naraliyeva (Qozog'iston), Ilyos Ismoilov (O'zbekiston), Azizullah Aral (Afg'oniston), Orzigul Hamroyeva (O'zbekiston), Ozoda Tojiboyeva (O'zbekiston)

Ushbu to'plamda "Alisher Navoiy va XXI asr" mavzusidagi 10-uluslararo konferansi materiallari jamlangan. To'plamda Alisher Navoiy adabiy-ilmiiy merosining mumtoz adabiyotimizdagi o'rni va bugungi kun uchun ahamiyati, shuningdek, shoir ijodiga bog'liq holda matnshunoslik va tilshunoslik muammolariga doir ilmiy maqolalar o'rin olgan. Navoiyshunoslikning bugungi holati va istiqboli borasida muayyan tasavvur berishi uning ahamiyatini belgilaydigan omillardan biridir. Kitob filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistrantlar va bakalavr talabalari hamda keng o'quvchilar ommasiga mo'ljallangan.

Mualliflar qarashi va asarlar nomlaridagi imlo tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

**Әлішер Науаи атындағы Ташкент
мемлекеттік өзбек тілі мен әдебиеті университеті**

**Қазақстан Республикасы Жұмабек
Тәшенев атындағы университет**

«ӘЛІШЕР НАУАИ ЖӘНЕ XXI ҒАСЫР»

**тақырыбындағы 10-халықаралық
конференция материалдары**

2025 жыл 6 ақпан

Ташкент – Шымкент – 2025

II SHO'BA. NAVOIY NAZMIY, NASRIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

SECTION II. ISSUES OF STUDYING NAVAIY'S POETRY, PROSE AND SCIENTIFIC HERITAGE

ALISHER NAVOIY "TARIXI ANBIYO VA HUKAMO" ASARINING SIYARNOMA TURKUMIDA TUTGAN O'RNI

Nurboy Jabborov,

filologiya fanlari doktori, professor, Alisher Navoiy nomidagi TDO'TAU

jabborov-nurboy@rambler.ru

10.52773/tsuull.conf.navoiy.2025/HGZS7526

Annotatsiya. Maqolada payg'ambarlar, avliyolar va shu kabi ulug' shaxslar hayoti hamda faoliyatiga bag'ishlangan asarlarga G'arb adabiyotshunosligidagi kabi "agiografiya" emas, Sharq adabiyoti xususiyatidan kelib chiqib, "siyarnoma" istilohini qo'llash zarurati ilmiy asoslangan. "Siyar" so'zi arab tilidagi "siyrat" kalimasining ko'plik siyg'asi bo'lib, "yo'l", "sunnat", "hayot yo'li", "tarjimayi hol" yoki "tartib" ma'nolarini bildirishi, Sharq mumtoz adabiyotidagi payg'ambarlar va avliyolar hayotiga doir badiiy asarlar "siyarnoma" deyilishi maqsadga muvofiq ekani dalillangan. Alisher Navoiyning "Tarixi anbiyo va hukamo" asari siyarnomaning mukammal namunasi ekani tadqiq qilingan. Shuning barobarida, ushbu siyarnoma Navoiyning "Zubdat ut-tavorix" nomli yirik tarixiy asarining bir qismi bo'lishi mumkinligi haqidagi mavjud ilmiy qarashlar boyitilgan.

Asarda payg'ambarlar ikki guruhga: rasul va nabiy'larga ajratilgani, nabiy'lar hayoti haqidagi ma'lumotlar sulolalar tartibida bayon etilgani aniqlangan. Asarning birinchi qismida Odam Atodan boshlab oltmishdan ortiq payg'ambarlar va ular avlodlarining biografiyalari keltirilgani, ikkinchi qismida esa hakimlar zikri berilgani tadqiq qilingan.

Asarning boshqa siyarnomalardan farqi, birinchidan, Odam alayhissalomdan Jirjis alayhissalomgacha bo'lgan payg'ambarlar zikri kelgani bilan belgilansa, ikkinchidan, nabiy'lar hayoti keng va mufassal yoritilmay, eng muhim va xarakterli ma'lumotlar berilganida, uchinchidan, Muhammad alayhissalom davri voqealari ifodalanmaganida ko'rinishi aniqlangan.

Kalit so'zlar: agiografiya, siyarnoma, payg'ambarlar, avliyolar hayoti, istiloh, terminologiya, adabiyot, nasr, nazm.

Аннотация. В статье научно обоснована необходимость использования термина «сиярнама», исходя из особенностей восточной литературы, а не «агиография», как в западном литературоведении, для произведений, посвященных жизни и деятельности пророков, святых и подобных великих деятелей.

Слово "сияр" является производной множественного числа от арабского слова "сийрат", что означает "путь", "обрезание", "жизненный путь", "биография" или "порядок". Доказано, что литературные произведения о жизни пророков и святых в классической восточной литературе правомерно называть «сиярнамэ». Установлено, что «История пророков и мудрецов» Алишера Навои является прекрасным образцом сиярнамэ. В то же время существующие научные взгляды обогатились возможностью того, что этот сиярнамэ может быть частью главного исторического труда Навои «Зубдат ут-таворих».

В статье раскрывается, что в данном произведении пророки делятся на две группы: посланники и пророки, а сведения о жизни пророков излагаются в порядке династий. В первой части труда представлены биографии более шестидесяти пророков

и их потомков, начиная с Адама, а во второй части рассматриваются упоминания мудрецов.

Уточнены, что произведение отличается от других сиярнамэ, во-первых, тем, что в нем упоминаются пророки от Адама (мир ему) до Джирджиса (мир ему). Во-вторых, жизнь пророков не освещается подробно, а приводятся лишь наиболее важные и характерные сведения. В-третьих, события времен Мухаммада (мир ему) не описаны.

Ключевые слова: агиография, сиярнамэ, пророки, жития святых, термин, терминология, литература, проза, поэзия.

Abstract. This article scientifically substantiates the necessity of adopting the term *siyarnoma* in Eastern literary studies, rather than *hagiography*, which is commonly used in Western scholarship, for works dedicated to the lives and contributions of prophets, saints, and other eminent historical figures. The term *siyar* is derived from the Arabic *siyrat*, meaning "path," "tradition," "life's journey," "biography," or "order." The study establishes that literary compositions depicting the lives of prophets and saints in classical Oriental literature can be appropriately classified as *siyarnoma*.

Furthermore, it is demonstrated that Alisher Navoi's *The History of Prophets and Sages* serves as an exemplary *siyarnoma*. The article also explores the scholarly hypothesis that this work may constitute a section of Navoi's principal historical treatise, *Zubdat ut-Tavorih* ("The Cream of Stories"), thereby enriching existing academic perspectives on Navoi's historiographical contributions.

The study reveals that Navoi categorizes prophets into two distinct groups: messengers and prophets, presenting their biographies in a dynastic sequence. The first section of the work chronicles the lives of more than fifty-three prophets and their descendants, beginning with Adam, while the second section is dedicated to renowned sages.

Additionally, the article identifies three key features distinguishing *The History of Prophets and Sages* from other *siyarnomas*. First, it comprehensively traces the lineage of prophets from Adam (PBUH) to Jirjis (PBUH). Second, instead of providing extensive narratives, it selectively highlights the most significant and defining aspects of their lives. Third, it notably omits events from the era of Muhammad (PBUH). This study, therefore, offers a refined understanding of the *siyarnoma* genre and its application in the context of Navoi's literary and historical legacy.

Keywords: hagiography, *siyarname*, prophets, lives of saints, term, terminology, literature, prose, poetry.

Klirish (Introduction)

Sharq-islom, jumladan o'zbek mumtoz adabiyoti shaklni ham, vaznni ham, ijodiy konsepsiyani ham Qur'oni karim va Hadisi shariflardan olgan. O'zbek mumtoz adabiyotining islomiy asoslarga tayanishi uning milliyligini inkor etmaydi. Ulug' shoir-u adiblarimiz asarlari milliy tilning fasohati va balog'ati aks etgani, ularda turkiy millatga xos e'tiqod, ruhiyat, dunyoqarash ifodalangani buning isbotidir. Adabiyot ijtimoiy voqelikni badiiy aks ettirsa-da, uning asosiy tasvir obyekti insondir. Inson ruhiyati, e'tiqodi, hayot tarzi, ma'naviy olami, ibratli umr yo'lini butun murakkabligi, ziddiyati bilan obrazli tasvirlash orqali shaxs kamoloti va jamiyat ravnaqiga xizmat qilish adabiyotning asl mohiyatini tashkil etadi.

Hazrat Alisher Navoiy asarlari sharq islom adabiyotining yuksak namunalaridir. Buyuk mutafakkirning badiiy ijodda kamolot darajasiga ko'tarilishida quyidagi ijtimoiy-ma'rifiy va badiiy-estetik omillar asos-zamin bo'lgan:

1. Qur'on va Sunnatni mukammal o'rganib, butun hayoti davomida islom shariatining bu ikki mo'tabar manbasiga og'ishmay amal qilgani.

2. Buyuk islom mutafakkirlari, tasavvuf allomalari asarlarini o'rgangani hamda ulardagi g'oyalarni muttasil rivojlantirib va boyitib, asarlarida yuksak darajada badiiy talqin eta bilgani.

3. O'zi mansub turkiy xalqning, o'zbekning tarixini mukammal bilgani, butun ijodiy-ilmiy salohiyatini millatning or-u nomusi, shon-u sharafini himoya qilish, yuksaltirish yo'liga safarbar etgani.

Alisher Navoiy buyuk islom mutafakkirlari, tasavvuf allomalarining quyidagi kitoblarini qunt bilan o'rgangan va o'z asarlarida tilga olgan [18.3-35]: *Tafsir kitoblari*: Najmiddin Kubroning Qur'oni karim tafsiriga doir "Ayn ul-hayot", G'azzoliyning "Javohir ul-Qur'on", Ro'zbehon Baqliyning "Aroyis ul-bayon fil-haqoyiq il-Qur'on", Abu Tolib Makkiyning "Qut ul-qulub", Najmuddin Roziyning "Bahr ul-haqoyiq", Husayn Voiz Koshifiyning "Javohir ut-tafsir", Mahmud Zamaxshariyning "Al-kashshof fi tafsir il-Qur'on", Sadruddin Qo'naviyning "Tafsiri fotiha" asarlari. Ushbu mo'tabar tafsirlar butun islom olamida e'tirof etilganiyoq buyuk mutafakkirning Qur'on ilmiga e'tibori nechog'liq kuchli ekani isbotidir. Husayn Voizning "Javohir ut-tafsir" asari bevosita hazrat Navoiy tavsiyasi va homiyligida yozilgan. Tafsir xotimasida muallif ulug' amirning islom dini rivojiga doir faoliyatiga yuksak baho bergan.

Hazrat Navoiy *hadis ilmiga doir* nodir manbalarni o'rganishga ham alohida e'tibor bergan. Bu ilm rivojida beqiyos ahamiyatga ega bo'lgan Imom Buxoriyning "Al-jomi' as-sahih", Imom Muslimning "Sahih ul-Muslim", Imom Termiziyning "Sunani Termiziy", Majduddin Muhammadning "Jome' ul-usul" asarlari, hadis ilmining badiiy adabiyotga ta'siriga doir Imom an-Navaviyning "Arba'in un-Navaviy", Abdurahmon Jomiyning "Sharhi hadis" va "Arba'in" asarlari buyuk shoir tafakkuri miqyoslarining yuksalishida alohida o'rin tutgan.

Tasavvuf ilmi hazrat Alisher Navoiy hayoti va ijodida nechog'liq muhim o'rin tutgani isbot talab qilmaydi. Shu bois bolalik kezlaridan tasavvufiy adabiyotning mumtoz namunasi bo'lgan Shayx Fariduddin Attorning "Mantiq ut-tayr" asarini sevib mutolaa qilgan, hatto yodlab olgan edi. Tasavvuf ilmining ulkan nazariy-falsafiy va adabiy-ma'rifiy ahamiyatga molik manbalari hisoblangan al-Arabiyning "Fusus ul-hikam", Abu Homid G'azzoliyning "Ihyou ulum id-din", Ka'b binni Zuhayrning "Qasidai burda", Abdulloh Ansoriyning "Manozil us-soyirin", Shahobuddin Suhravardiyning "A'lom ut-tuqo", Hakim Sanoiyning "Hadiqat ul-haqoyiq", Shayx Sayyiduddin Farg'oniyning "Manohij ul-ibod alal miy'od", Xoja Muhammad Porsoning "Fasl ul-xitob", Amir Qosim Anvorning "Anis ul-oshiqin", Jaloluddin Rumiyning "Masnaviyi ma'naviy", Abu Ali Jullobiy Hujviriyning "Kashf ul-mahjub", Shayx Alouddin Simnoniyning "Iqboliya", Abulhusayn Jahzam Hamadoniyning "Bahjat ul-asror", Shayx Najmuddin Kubroning "Favotih ul-jamol", Xusrav Dehlaviyning "Mir'ot us-safo", Horis Muhosibiyning "Kitob ul-munqiz val-vasoyo", Shayx Fariduddin Attorning "Mantiq ut-tayr", "Tazkirat ul-avliyo", Abdulloh al-Yamaniyning "Ravz ur-rayohin", Shayx Mahmud Shabustariyning "Haqq ul-yaqin", Abulqosim Qushayriyning "Risola fit-tasavvuf", Abudurrahmon an-Nishoburiyning "Tabaqoti sufiya", Hakim at-Termiziyning "Xatm ul-valoya", Jomiyning "Ashia't ul-lama'ot" hamda al-Arabiyning "Naqsh ul-fusus" asariga yozgan "Naqd un-nusus", "Fusus ul-hikam" asariga bitgan "Naqd ul-fusus" nomli sharhlari va boshqa asarlar buyuk shoirning mutasavvif sifatidagi kamolotiga xizmat qilgan, ijodiy yuksalishida manba vazifasini o'tagan.

Ta'kidlash kerakki, diniy-irfoniy bilimlarning ana shunday beqiyos xazinasidan bahramandlik natijasi o'laroq hazrat Alisher Navoiy Sharq islom adabiyotining nodir namunalarini yaratdi. Buyuk mutafakkirning badiiy-estetik tafakkuri mazkur manbalar ta'sirida shakllandi va takomilga erishdi. Ulug' adibning siyarnoma xarakteridagi "Tarixi anbiyo va hukamo" ("Payg'ambarlar va donishmandlar tarixi") asari ham ayni shu mo'tabar manbalar bergan ilhom va irfon natijasidir.

Asosiy qism (Main part)

Payg'ambarlar va valiyalar hayoti, siyrati va odamzodni hidoyat yo'liga boshlashdek ulug'vor missiyasi haqida jahon adabiyotida ko'plab badiiyat durdonalari yaratilgan. Bu mavzudagi asarlar G'arb adabiyotshunosligida "agiografiya", rus adabiyotshunosligida esa aksar "жизния святых" istilohlari bilan atalib keladi. Jumladan, James Palmer fikricha: "Mark Van Uytfaenxe "agiografik nutq"ning to'rt xususiyatini: Xudoga yaqin bo'lgan mavzularga asoslanish; hikoyatlarning subyektivligi, ko'proq xalq og'zaki ijodiga asoslangani; ma'lumot berishdan ko'ra ideallashtirish, (Yaratganni) ulug'lash va tarbiyaga alohida e'tibor qaratish kabilarni hisobga olganda bu termin boshqalariga nisbatan yaxshiroqdir. Bu janr biroz yengilroq, azizlar hayoti haqidagi xristian matnlariga to'g'ri keladi" [7,9]. "Краткая литературная энциклопедия"da bunday asarlarga "жизния святых" nomi bilan quyidagicha ta'rif berilgan: "Xristian cherkovi tomondan kanonlashtirilgan ruhoniylar va dunyoviy shaxslar biografiyasi" [12, 946]. Xo'sh, biz "Qisasi Rabg'uziy", "Nahj ul-farodis", "Tarixi anbiyo va hukamo" singari Sharq-islom tafakkuri asosida yaratilgan asarlarni "agiografiya" nomi bilan atashimiz to'g'rimi? Nahotki, jahon adabiyotiga sanoqsiz badiiyat durdonalarini bergan, adab, fasohat va balog'at ilmlariga doir benazir ilmiy asarlarga ega mumtoz Sharq adabiyotshunosligida bu atamaning muodili bo'lmasa? Bu kabi savollar fikr yuritishga arziydi va izlanishga undaydi.

Taassufki, hanuzga qadar milliy adabiyotshunosligimizda bu yo'nalishdagi asarlar to'g'ridan to'g'ri G'arb terminologiyasi asosida nomlanib kelmoqda. Umuman, biz adabiyotshunoslik terminologiyasi ustida kamdan kam bosh qotiramiz. Ko'pincha "dunyoda qabul qilingan istiloh" degan tushunchaga tayanib, aksar atamalarni hech bir tahrirsiz, biror o'zgarishsiz qabul qilaverishga odatlanganmiz. Aslida, mohiyatan G'arb adabiyotidan keskin farq qiladigan Sharq xalqlari e'tiqodi va dunyoqarashiga mos asarlar ustida jiddiyroq o'ylash, ular bilan bog'liq istilohlarni milliy adabiyotimiz xususiyatidan kelib chiqib tanlash ilmiy ehtiyojdir. Agar o'zbek mumtoz poetikasida bunday istiloh mavjud bo'lmasa, qardosh xalqlar, zarurat tug'ilganda, Sharq xalqlari terminologiyasiga murojaat qilinsa, muammoga yechim topish mumkin bo'ladi, deb o'ylaymiz. Savol tug'iladi: "agiografiya" istilohining muqobili bormi? Qaysi istiloh uning o'rnini bosa oladi. Ko'p yillik izlanishlarimiz natijasida o'zbek va qardosh turkiy xalqlar terminologiyasidan bunga muqobil istiloh topilmadi. Izlanishlarni muttasil davom ettirdik. Mumtoz adabiyotimizning asosiy istilohlari olingan arab adabiyotshunosligi hamda ilohiyotshunosligiga doir manbalarni o'rganish jarayonida mazkur muammoga yechim topgandek bo'ldik.

Arab ilohiyotshunosligida "Ilm us-siyar" degan atama bor. Payg'ambarlar, avliyolar va shu kabi ulug' siymolar hayot yo'liga doir asarlar ana shu ilm orqali o'rganiladi. Buyuk vatandoshimiz Imom Abu Bakr Mas'ud ibn Ahmad Al-Kosoniyning "Badoyi' us-sanoyi' fi tartib ish-sharoyi'" asarida "siyar" atamasiga quyidagicha ta'rif

berilgan: “Siyar” soʻzi arab tilidagi “siyrat” kalimasining koʻplik siygʻasi boʻlib, “yoʻl”, “hayot yoʻli”, “tarjimayi hol” yoki “tartib” maʼnolarini bildiradi [8, 97]. “Al-Moʻjam al-Vasit” lugʻatida “siyrat” soʻzi mana bunday izohlangan: “Siyrat” – sunnat, yoʻl maʼnolarini bildiradi. Inson va boshqa (jonzot)lar tushib qoladigan holat ham “siyrat” deyiladi. “Nabaviy siyrat” va “Siyrat kitoblari” deb ham ishlatiladi. Bunda “Siyrat” soʻzining “yoʻl” degan maʼnosi olingan. “Nabaviy siyrat” deganda u zotning nasl-nasablari, odob-axloqlari, tarixiy ishlari va gʻazotlari tushuniladi. “Falonchining siyratini oʻqidim” deyilganda, bundan: “Uning hayotiy tarixini oʻqidim” degan mazmun anglashiladi” [5, 467]. “Toj ul-Urus” asarida yozilishicha: “Siyrat” soʻzi lugʻatda “yoʻl” degan maʼnoni anglatadi. Shuningdek: 1) avvalgilarning siyratida, yaʼni yoʻlida yurish; 2) koʻrinish, degan mazmunda ham qoʻllanadi” [9, 117]. Muallif bunga Qurʼoni karimning Toha surasi 21-oyatini dalil sifatida keltiradi:

قَالَ خُذْهَا وَلَا تَخَفْ سَنُعِيدُهَا سِيرَتَهَا الْأُولَى

Yaʼni: “Biz ularni tez orada avvalgi siyratlariga, yaʼni koʻrinishlariga qaytaramiz”.

Bundan tashqari, ushbu istiloh olimlar tomonidan turlicha izohlangan. Siyrat soʻzi (سَيْرَة) lugʻatda: yoʻl, holat, koʻrinish degan maʼnolarni anglatadi. “Siyrat” soʻzining koʻplik shakli “siyar” (سَيَر) koʻrinishida boʻladi [6, 299]. Bu soʻz istilohda: “Rasululloh sollallohu alayhi va sallamga oid soʻz, amal, tasdiq yoki sifatlariga nisbatan ham aytiladi. Bu izoh muhaddislar tomonidan sunnatga berilgan taʼrifga sinonimdir” [14, 12]. Demak, “siyrat” soʻzining koʻplik shakli boʻlgan “siyar” kalimasi paygʻambarlar va avliyolar hayot yoʻli, axloqi, turmush tarzi va butun faoliyatini oʻzida mujassam etadi. Shunga koʻra, “Ilm us-siyar” – “Siyar ilmi” atamasi ilohiyotga oid istiloh sanaladi. Endi bu yoʻnalishdagi badiiy asarlarni qanday istiloh bilan nomlagan maʼqul, degan navbatdagi savolga javob izlash zarurati tugʻiladi. Bizningcha, “siyarnoma” atamasi paygʻambarlar va valiyalar hayotiga doir badiiy asarlar mohiyatini toʻlaqonli ifodalaydi. Milliy adabiyotimizda shunga yaqin atamalar bor. Jumladan, maktub xarakteridagi asarlar – noma, sayohat yoʻnalishidagi asarlar sayohatnoma deb atalib kelayotgani “siyarnoma” istilohi adabiy-estetik mezonga har jihatdan muvofiq kelishiga dalil boʻla oladi. Shunga koʻra, Nosiriddin Rabgʻuziyning “Qisasi Rabgʻuziy”, Mahmud ibn Ali as-Saroyining “Nahj ul-farodis”, Alisher Navoiyning “Tarixi anbiyo va hukamo” singari asarlari siyarnoma turkumiga mansub, deyish toʻgʻri boʻladi.

Siyarnomalar ichida hazrat Alisher Navoiyning 1485-1489-yillar orasida yozib tugallangan “Tarixi anbiyo va hukamo” asari alohida ajralib turadi. Asarda, boshqa siyarnomalardan farqli ravishda, Muhammad alayhissalom davri voqealari berilmagan. Buni olimlar turlicha izohlagan. Jumladan, akademik Aziz Qayumov fikricha: “Tarixi anbiyo va hukamo” deb atalmish boʻlgan kitob Navoiy yozgan yoki yozmoqchi boʻlgan katta bir tarix kitobining boshlangʻich qismi [17, 22]. Demak, buyuk mutafakkir Muhammad alayhissalom siyratini alohida batafsil yoritishni niyat qilgan koʻrinadi. Chunki lirik kulliyoti “Xazoyin ul-maoniy”ning har bir devonida hamda “Xamsa”ning har besh dostonida naʼtlar, meʼroj vasflarini bitgan hazrat Navoiy boshqa paygʻambarlar tarixini bayon etgani holda Rasululloh sallollohu alayhi vasallam davri voqealari haqida asar yozmasligi mumkin emas edi. Bundan tashqari, “Muhokamat ul-lugʻatayn”dagi: “Bu “Xamsa” shugʻlidin chun farogʻat topibmen, taxayyulim getinavardin salotin taʼrixi dashtiga chopibmen, chun noma savodi zulmatidin “Zubdat ut-tavorix” adosin tuzupmen, salotin oʻlgan otin bu hayvon suyi bila tirguzupmen” [3, 527], degan fikrlar hazrat Navoiyning tarixiy-badiiy nasrda yirik asar yozishni niyat qilganidan dalolat beradi. Bu soʻzlardagi “Zubdat ut-tavorix” (“Tarixlar sarasi”) nomi

“Tarixi anbiyo va hukamo” hamda “Tarixi muluki Ajam”ning umumiy nomi, deyish mumkin. Bundan tashqari, hazrat Navoiy “Tarixi anbiyo va hukamo”da: “Chun bu tarixki bitiladur, xotirda andoqdurkim, Sultoni sohibqiron holot va ansobi mazkur bo’lg’ay, inshoallohu taolo ul Yofas tarixig’a mavqufdur. Chun bo’lg’usidur muncha bila ixtisor qilildi” [3, 544], deb Sulton Husayn Boyqaro tarixini bitish niyati borligini alohida ta’kidlaydi. Bundan ma’lum bo’ladiki, buyuk adib o’z oldiga “Zubdat ut-tavorix”da Odam alayhissalomdan o’z zamonigacha bo’lgan voqealarni bayon etish maqsadini qo’ygan. Tabiiyki, badiiy-tarixiy nasrda bitiladigan mazkur asar “Tarixi anbiyo va hukamo”dan boshlanib, temuriylar saltanati va Husayn Boyqaro hukmdorligi davri bilan yakunlanishi rejalashtirilgan, deb hisoblash mumkin.

“Tarixi anbiyo va hukamo” hamda “Tarixi muluki Ajam” uslubidan va “Zubdat ut-tavorix” sarlavhasidan ham ayonki, Buyuk adib ijodiy niyati eng ahamiyatli, insoniyat va millat kechmishida alohida o’rin tutuvchi hodisalarnigina yoritish bo’lgan.

Hazrat Navoiy “Tarixi anbiyo va hukamo”da payg’ambarlarni ikki guruhga: rasul va nabiyarga xoslaydi. Payg’ambarlik to’rt darajada ekani haqida yozadi.

1. G’ayri mursal. 2. Mursal. 3. Ululazm. 4. Xotim.

Buyuk adib so’zlaridan vahiy bilan emas, ilhom yoki tush bilan elga rahnamolik qilganlar g’ayri mursal payg’ambarlar ekani anglashiladi. “Va g’ayri mursal adadi va asomiysining otlarin bitib, aksar, balki borcha kutubda tahqiq bo’lmag’on jihatidin nuqta ham qo’ymaydurlar va vaqoye’ va holotlarini bitmaydurlar. Muborak ismlarin g’alat bitmak beadablig’ va ahvollarin sharh qilmoq befoyda ko’rungan uchun, alar zikridin qalam jurdai xush xiromidin inon tortildi. Va ba’zi Jirjis a. s. g’ayri mursal debdurlar” [3, 596]. G’ayri mursal payg’ambarlar soni va ismlari aniq bo’lmagani, ularning voqealari va holotlarini bilmagani bois muallif aksar tarix kitoblarida ular haqida ma’lumot berilmaganini ta’kidlaydi. Siyarnoma yozish talablari va odobiga qat’iy rioya etgani, g’ayri mursal payg’ambarlar ismini xato yozishni beadablik hisoblagani bois o’zi ham bu haqda yozishni maqbul ko’rmaydi.

Hazrat Navoiy payg’ambarlar adadi ayon emasligi, ba’zi tarixchilar yuz yigirma to’rt ming va ayrimlar sakkiz ming deyishi haqida yozar ekan, “bulardin uch yuz o’n uchi mursal debdurlar” [3, 596], degan ma’lumotni keltiradi. Asarda yozilishicha, vahiy Jabroil alayhissalom orqali kelgan payg’ambarlar mursal hisoblanadi. Siyarnomada bu haqda shunday deyilgan: “Chun mursal adadi va asomiysi g’ayri mashohir ma’lum ermas, g’ayri mursalg’a ham ne yetkay. Ammo mursalni mo’tabar kutubdin ulcha mumkindur sa’y va ehtiyot qilib zikr qilildi” [3, 596]. Ushbu fikrlar buyuk adibning mursal payg’ambarlar hayotiga doir ma’lumotlarni yoritishda nechog’liq katta mas’uliyat bilan yondashganidan dalolat beradi.

Siyarnomada yozilishicha, samoviy kitob nozil etilib, shariati bo’lsa, ululazm payg’ambarlar sanaladi. “Ululazm uldurkim, bovujudi bu iki shaq anga kitobi osmoniy kelmish bo’lg’ay va boshqa shariati bo’lg’ay” [3, 596].

Xotim payg’ambar – undan keyin nabiy kelmasligi hisoblanib, tabiiyki, bu – hazrat Muhammad alayhissalom maqomi. Hazrat Navoiy ta’biricha: “Va xotim ulkim, bovujudi bu iki shaq ondin so’ngra payg’ambar bo’lmag’aykim, bu sifat hazrati Muhammad arabiy sallallohu alayhi va alo olihi va ashobihi vasallamg’a musallamdur, bas” [3, 596]. Siyarnomaning ikki o’rnida Muhammad s.a.v. nomi keltirilgan. Birinchisi, Odam alayhissalom qissasida, Tangri taoloning olam va odamni yaratmoqdan murodi Muhammad alayhissalom ekani zikr etiladi. Ikkinchisi, yuqorida zikr etilgan xotim payg’ambar haqidagi xabarda.

Asarda payg'ambarlar hayoti haqidagi ma'lumotlar sulolalar tartibida bayon etilgan. Odam Ato (a.s)dan boshlab, jami oltmish payg'ambar zikri berilgan bo'lib, ulardan o'ttiz yetti nafari hayot yo'li, nubuvvat davridagi faoliyati va eng muhim voqealar hamda ayrimlarining farzandlari hayotiga doir ahamiyatli ma'lumotlar keltirilgan. Yigirma uch nafar payg'ambarning nomlari zikr etilgan, xolos. Bundan tashqari, Barsisoy, Shamsun, Jurayh, Xanzalas Sodiq, Habibi Najjor singari besh obid hamda Fishog'urs, Luqmoni hakim, Jamosb, Buqrot, Suqrot, Buqrotis, Aflotun, Aristotilis, Bilyonus, Jalyonus, Batlimus, Soduq va Buzurjmehr kabi hakimlar holotlari yoritilgan.

Boshqa siyarnomalar bilan qiyoslaganda, "Tarixi anbiyo va hukamo" o'ziga xos mezonlar asosida bitilgani ayon bo'ladi. Bu o'ziga xoslik Nosiriddin Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy" asari bilan qiyoslaganda, ayniqsa, yaqqolroq namoyon bo'ladi. Birinchidan, hazrat Alisher Navoiy siyarnomasi muqaddimasida Nosiriddin Rabg'uziy va boshqa salaflaridan farqli ravishda an'anaviy hamd, munojot va na't berilmagan. Asar to'g'ridan to'g'ri "Odam salovatullohi alayh xilqati" bayoni bilan ochilgan. "Qisasi Rabg'uziy" esa: "Sonsiz hamd-u sanolar, saqishsiz telim o'gdular, ul Izi azza va jalla karim qudrati birla bizlarni odamiy yaratti... biz zaiflarga Muhammad Mustafo sallollohu alayhi vasallamni payg'ambar izti" [11, 9] tarzidagi hamd-u na't bilan boshlagan.

Ikkinchidan, "Tarixi anbiyo va hukamo" asarini buyuk adib o'z ijodiy niyati haqidagi mana bu so'zlar bilan yakunlaydi: "Chun anbiyo alayhissalom so'zi va ubbod va hukamo tarixi alal-ijmol mazkur bo'ldi, emdi Ajam muluki zikriga shuru' qilali va min Allohit-tavfiq. Vallohu a'lamu bis-savob" [4, 718]. "Ijmol" – qisqalik, muxtasarlik, qisqartirish kabi ma'nolarni anglatishi nazarda tutilsa, muallifning maqsadi ayon bo'ladi. Ta'kidlash kerakki, muxtasarlik, qisqalik tushunchalari oz so'zda ko'p ma'no ifodalangani, bir necha kitobda bayon etilishi mumkin bo'lgan ma'lumotlar bir asarda jamlanganini bildiradi. Asar barcha mo'tabar manbalarda, xususan, 1495-1496-yillarda, xattot Darvesh Muhammad Toqiy tomonidan ko'chirilgan va ayni kezda Turkiyaning Istanbul shahri, Topkapi saroyi kutubxonasida saqlanayotgan «Revan 808» hamda Fransiyaning Parij kutubxonasidagi "Suppl Turc 317" raqamli qo'lyozmalarida bir xil – yuqoridagi fikrlar bilan yakunlangan. Lekin, afsuski, siyarnoma qo'lyozmalarida kelgan ushbu xotima asarning nashr nusxalaridan birortasida ham uchramaydi. Demak, hazrat Navoiy tarixiy voqealarni batafsil bayon etishni maqsad qilmagan, muhimdan ham muhimlariga diqqat qaratgan. "Qisasi Rabg'uziy"da esa payg'ambarlar hayoti butun tafsilotlari bilan beriladi. Masalan, asarning joriy imlodagi dastlabki nashrida Odam alayhissalom qissasiga 17 sahifa ajratilgan bo'lsa, "Tarixi anbiyo va hukamo"ning 2011-yilgi nashrida bu qissa 2 sahifada bayon etilgan.

Uchinchidan, hazrat Navoiy payg'ambarlar haqidagi ma'lumotlarni saralab, eng qimmatlilarini tanlab yoritgan bo'lsa, Nosiriddin Rabg'uziy siyrat va holotlarni mufassal bayon etish bilan ham cheklanmay, zarur deb hisoblagan o'rinlarida siyarlarni to'ldiruvchi hikoyatlar, bundan tashqari, "Pand va nasihat", "Foyda", "Munojot", "Bashorat" sarlavhalari bilan hikmatlar va Alloh taologa munojotlarni ham berib boradi. Hatto Iso alayhissalom siyrati haqida yozganda, besh hikoyat berilgan bo'lsa, Muhammad alayhissalom qissasidan chahoryorlar – hazrat Abu Bakr, Umar, Usmon va Ali r.a. fazilatlar haqidagi fikrlar ham o'rin olgani kuzatiladi.

To'rtinchidan, "Qisasi Rabg'uziy" muallifi nasriy matn orasida o'rni bilan to'rt misradan o'ttiz satrgacha she'rlar berib borgan bo'lsa, "Tarixi anbiyo va hukamo"da

she'rlar hajmi ikki yoki to'rt misradan oshmaydi. Asar uslubini o'rgangan Qodirjon Ergashev fikricha: "Navoiy o'z maqsadidan kelib chiqib, qissa mazmunini muxtasar, izchil bayon qiladi va unda muallif uslubiga xos eng qimmatli xususiyatlar, ...siqqlik, lo'ndalik, fikrlarning qisqa, ixcham jumalalarda ifodalanishi kabilar o'z aksini topadi" [16. 218].

Beshinchidan, "Qisasi Rabg'uziy"da Qur'oni karimda zikr etilgan yigirma besh payg'ambar qissasi berilgan bo'lsa, "Tarixi muluki Ajam"da Odam alayhissalomdan Jirjis alayhissalomgacha bo'lgan oltmish payg'ambar zikri kelgan. Hazrat Navoiy muxtasar yozish evaziga kattaroq ko'lamdagi tarixni qamrab olishga muvaffaq bo'lgan. Ana shu xususiyatni ulug' mutafakkir o'zi mana bunday izohlaydi: "Chun bu muxtasarda matlub ixtisordur, ya'ni muarrixona ishlarga qone' bo'luldi" [3, 589]. Bu hol ulug' adibning ortiqcha so'z qo'llamagani, o'z ijodiy niyatiga monand ravishda ma'lumotlarni ijmol usulida bergani isbotidir. Siyarnomada adabiy va tarixiy uslub sintezi kuzatiladi. "Adabiy uslubga xos xususiyatlar, eng avvalo, "Tarixi anbiyo va hukamo"dagi payg'ambarlar haqidagi qissalarning har biri o'ziga xos kompozitsiyaga, mustaqil syujetga ega ekanida, ularning bayon tarzi va matn tuzilishida, qissalardagi personajlar va obrazlar qiyofalarining ochib berilishida ko'rinadi.. "Tarixi anbiyo va hukamo"da payg'ambarlarning ko'pchiligi ayni paytda qissa qahramoni, adabiy personaj va obraz hamdir. Bunda asar uslubining o'ziga xos jihatlari ularning payg'ambar va inson sifatidagi qiyofalarining ochib berilishida, obrazlarining talqinlarida ko'zga tashlanadi. Navoiy ularning siyratlari va fazilatlarini ko'proq turli lavhalar va detallar yordamida ko'rsatadi" [16, 216].

Har bir payg'ambar qissasiga to'xtalar ekan, buyuk adib ular faoliyatining boshqa nabiylardan farqli jihatlari alohida e'tibor qaratadi. Jumladan, Shis alayhissalomga sahifa nozil bo'lgani, Ka'ba binosini ilk bor u tosh va ganchdan imorat qilgani aytiladi. Qobil farzandlari kufrga ketib, otashparastlikka mashg'ul bo'lib, Odam avlodlariga zarar yetkazganda, botir va shijoatli Shis alayhissalom ular ustiga qo'shin tortib, fasodlarini daf etgani haqida ma'lumot beriladi. Siyarnomada yozilishicha, Bobildagi Sus shahrini ham Shis alayhissalom bino qilgan. Hazrat Navoiyning yozishicha: "Anushkim, ulug'roq erdi, o'z o'rnida valiahd qilib, olamg'a vido' etti. Va ani Odam a.s. yonida dafn qildilar. Va yoshi to'quz yuz o'n iki yilg'a yetti" [3, 541].

Ayyub alayhissalom qissasida inson kamoloti va saodatida sabrning tutgan o'rni ta'sirli ifodalanadi. "Yana bir e'tiborli jihati, Alisher Navoiy payg'ambarlarning iymoni, sabri va yuksak fazilatlarini alohida tasvirlaydi. Masalan, Ayyub (a.s.)ning boshiga tushgan tashvish va balolar ham uni Allohga ibodat qilishdan to'smaganini aytarkan, bu bilan sevgi va do'stlikning sobit bo'lishi haqidagi g'oyalarini bayon qiladi" [13, 220].

Asarda har bir payg'ambar qissasi muxtasar bayon etilgach, xulosa nazmda beriladi. "Masnaviy", "ruboiy", "bayt", "she'r" va ayrim o'rinlarda "nazm" nomi bilan keltirilgan bu she'rlarda qissasi keltirilgan payg'ambarlar ismi talmeh vazifasini o'tab, inson umri hatto u nubuvvat ne'mati bilan siylangan bo'lsa ham, foniy ekani haqidagi hayot falsafasi badiiy talqin etiladi. Siyarnomadagi she'riy parchalar payg'ambarlar qissasini to'ldirish, izohlash yoki xulosalash uchun xizmat qiladi. Masalan, Shis alayhissalom qissasidan keyin "Ruboiy" sarlavhasi bilan mana bu she'r keltirilgan:

Gar Shis va gar Qobil erur, gar Hobil,
Yoshlari agar yuz yil erur, gar ming yil,
Bir necha kun etsalar jahonda ta'til,
Oxir borig'a ajal buyurur ta'jil [3.541].

Ya'ni Shis bo'ladimi, Qobil yoki Hobilmi, yuz yoki ming yil yashasa ham, jahonda bir necha kun ta'til etadi, xolos. Oxiri barchasiga ham shoshilinch ravishda ajal kelishi tayin. Bu orqali buyuk adib o'quvchini ogohlikka chaqiradi. Cheklangan umrni ezgulikka sarflash zarurligini uqtiradi.

Shis alayhissalomning o'g'li Anush qissasini yozar ekan, hazrat Navoiy birinchi bo'lib Anush xurmo daraxtini ekkani va sadaqani joriy etganini ta'kidlaydi. Shu bois uning zamonida tinchlik va farovonlikka erishilgani aytiladi. Siyarnomada yozilishicha: "Va avval kishikim, sadaqa rasmi paydo qildi, ul erdi. Ul sababdinkim, aning zamonida rafohiyyat ko'p bo'ldi. Va oncha qo'y va uy va soyir bahoyim paydo bo'ldikim, hech hisobin bilmas erdi. Ul buyurdikim, chun Haq taolo hisobdin ortuq mol karomat qilibdur, har mingdin birin ayirib, muhtojlarga'a bering" [3, 541]. Ya'ni uning davrida qo'y, qora mol va boshqa jonivorlar hisobiga yetib bo'lmaydigan darajada ko'paygan. Bu ne'matning shukronasiga Anush har mingtadan bittasini muhtojlarga sadaqa qilgan. Hazrat Navoiy fikricha, Anush payg'ambar emas, valiy edi. Odil va saxiy kishi bo'lgan, o'z avlodi va xizmatidagi kishilarni Odam alayhissalom diniga da'vat etgan. "Tarixi Ja'fariy"ga tayanib, uning zamonida Suvod mulkida bir ajdaho paydo bo'lib, xalqqa ko'p talafot yetkazgan. Anush o'sha ajdahoni Odam alayhissalom jannatdan olib kelgan aso bilan urib o'ldirgan. Muso alayhissalom qo'lida ajdahoga aylangan aso ana shu ekani aytiladi.

"Tarixi anbiyo va hukamo"ni yozar ekan, hazrat Alisher Navoiy zarur o'rinlarda boshqa ishonchli tarixiy manbalarga ham murojaat etadi. Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" va Mirxondning "Ravzat us-safo"si, bundan tashqari, "Tarixi Ja'fariy", "Tarixi Banokatiy", "Tarixi guzida" singari asarlarga havolalar berilgan. Ma'lumki, hazrat Navoiy zikr etgan "Tarixi Ja'fariy" asari 1447-1452-yillarda yozilgan bo'lib, o'rta asrlarning mashhur muarrix Sayyid Ja'far ibn Muhammad Husayniy Ja'fariy qalamiga mansub. "Tarixi Banokatiy" asarining muallifi XIV asrning atoqli tarixchisi Abu Sulaymon Banokatiydir. Asarning to'liq nomi "Ravzat uli-l-albob fit-tavorix va al-ansob" ("Ulug' kishilarning tarixi va nasablari haqida oqillar bog'i") bo'lib, qisqacha "Tarixi Banokatiy" deyilgan. "Tarixi guzida" esa Hamdulloh Mustavfiy Qazviniiy tomonidan yozilgan bo'lib, asarda olam yaratilishidan to milodiy 1329 (hijriy 729) yilgacha bo'lgan davr voqealari tasvirlangan.

Siyarnomada turkiylarning otasi Yofasning mursal payg'ambar ekani aytiladi: "Yofasni payg'ambari mursal debdurlar. Va ani yeti o'g'li bor erdi: Buka, Xizr, Suqlob, Rus, Bik, Chin, Kamo. Ba'zi sekiz o'g'ul debdurlar va sekizinchi Torax debdurlar. Va Iskandar Zulqarnayn Yofasning to'rtinchi o'g'lidur Rus naslidin" [3, 544]. Iskandar Zulqarnayn Yofas avlodidan dunyoga kelgani haqidagi xabar, ayniqsa, qiziqarli.

Hazrat Navoiy barcha asarlarida bo'lgani kabi siyarnomada ham buyuk salafлари nomlarini ehtirom bilan tilga oladi. Yusuf alayhissalom qissasini bayon etishdan avval "ahsan ul-qisas"ning "...g'arobat va shirinligi uchun akobir ham nazm va ham nasrda aning sharhi asbabin tuzubdurlar va bayonida sehrlar ko'rguzubdurlar" [3, 553], deya bu qissa mazmunida juda ko'p badiiyat durdonalari yaratilganiga ishora qiladi. Yusuf alayhissalomning husni va jamoli ta'rifga muhtoj bo'lmagani kabi uning qissasi haqida benazir asarlar yozgan Firdavsiy Tusiy, Abdurahmon Jomiy va Shayx Iroqiy fazli va kamoli vasfga ehtiyoj sezmasligini alohida ta'kidlaydi. "Komi xotirg'a bu orzuni kechururkim, inshoalloh umr omon bersa, turk tili bila – o'q kofurchun varaq uzra xomai mushkin shamomani surgay. Va bu qissa nazmin ibtido qilib, intihosig'a yetkurgay" [3, 554], deb o'zi ham turkiy tilda Yusuf alayhissalom qissasi haqida asar yozish niyati borligini alohida ta'kidlaydi.

Asarning ikkinchi qismida hakimlar zikri berilgan. Jumladan, Luqmon, Fishog'urs, Jomosb, Buqrot, Buqrotis, Suqrot, Aflotun, Aristotilis, Balinos, Jolinus, Batlimus, Sodiqliq, Buzurjmehr kabi hakimlar haqida muxtasar ma'lumotlar keltirilgan. Har bir hakim zikridan keyin uning o'ziga xos hikmati she'rda beriladi. Masalan, Buqrot hakim to'g'risida to'xtalganda, hazrat Navoiy mana bunday yozadi: "Oqil uldurkim, bu qisqa umrni bir nimaga sarf qilg'aykim, zaruratroqdur, ya'ni oxirat maslahati va Tengri taolo rizosi.

Kishiki qildi amal Tengrining rizosi bila,
Haq etti oxiratin kom-u muddaosi bila" [3, 600].

Hakimlarning eng ahamiyatli hikmatlari she'r shaklida ifodalangani siyarnoma badiiyati va ifodaning ta'sir kuchi yuqori bo'lishini ta'minlagan.

Siyarnoma xarakteridagi asarlarda payg'ambarlar hayoti, xavoriqliq va odatlari hamda nubuvvatga doir faoliyatini yoritishda asosiy va birlamchi manba Qur'oni karim va hadisi shariflardir. Shuning uchun ham bu tipdagi asarlarda muallif ijodiy niyatini ta'sirli va aniq ifodalashda, badiiy matnning ta'sir kuchini oshirishda, asardagi payg'ambarlar qissasiga xos eng asosiy jihatlarni urg'ulashda oyat va hadislardan foydalaniladi. "Tarixi anbiyo va hukamo"da ham ayni xususiyat yetakchilik qiladi. Asar matnida oltmish uch o'rinda Qur'oni karim oyatlaridan iqtibos olingan.

وَعَلَّمَ آدَمَ الْأَسْمَاءَ كُلَّهَا

Odam alayhissalom qissasida iqtibos sifatida olingan ushbu oyat mazmuni: "Va Alloh Odamga hamma narsaning ismini o'rgatdi".

Shayx Usmonxon Temurxon Samarqandiy mazkur oyatni quyidagicha tafsir qilganlar: "Alloh taolo Odam alayhissalomga jannatda O'zi yaratgan narsalarning ismini bildirishni ilhom qildi va bu nomlarni farishtalarga ham ko'ndalang qildi: "Agar so'zlaringiz rost bo'lsa, mana bu narsalarning ismini Menga aytib ko'ringlar-chi!" Ushbu oyati karimada insonga berilgan ilmning cheksiz-chegarasiz ekaniga ishora bor. Ushbu oyati karimada insonning bilim darajasi hatto farishtalardan ham ustun ekani, Odam alayhissalomning fazlini izhor qilish va inson ne sababdan yaratilganini bayon etish bor" [14, 44]. Siyarnomada mazkur oyati karimadan keyin mana bunday izoh berilgan: "...va maloikai muqarrab aning ilmiga mu'tarif bo'ldilar va Tangri taolo hukmi bila anga sajda qildilar" [3,539]. Siyarnoma matnidagi ushbu iqtibos ilm o'rganish, ilm orqali Haq taoloni tanib, kamolotga erishmoqliq, o'zi mansub millat va o'zi yashayotgan jamiyat ravnaqiga xizmat qilmoqliq Odam alayhissalom farzandlari zimmasidagi vazifa ekaniga urg'u beriladi.

Hazrat Navoiy asarda inson boshiga ko'plab sinovlar tushishi, sobit iymon egalarigina bu imtihondan muvaffaqiyat bilan o'tib, Haq taolo fazli bilan saodatga erishmog'i mumkinligini Idris a.s. taqdiri misolida tasvirlaydi. Ul zotning otasi Yazid zamonida e'tiqodi buzuqliq odamlar ko'paygani, unga butparastlikni man' etish haqida vahiy kelgani, Qobil avlodini iymonga keltirish uchun jiddu jahd qilgani aytiladi. Idris a.s. xalqliq orasida "musallas un-ni'ma" – uchinchi payg'ambar, uchinchi hakim va uchinchi podshoh sifatida shuhrat qozongani zikr etiladi. Xat va nujum ilmiga asos solgani, "kiymak va yemak andin qolgan"i, unga Haq taolodan o'ttiz sahifa nozil etilgani, uning zamonidan Nuh a.s. zamonigacha to'rt yuz o'ttiz to'rt yil ekani haqida ma'lumot beriladi. Alloh taolo Idris a.s.ning vafotini odamzod ko'rmasligini iroda etgani ta'kidlanadi. Siyarnomada yozilishicha: "Ham shar' ahli qoshida, ham tarix ahli olida aqida budurkim, ul tirikdur va bihishtdadur" [3, 542]. Ya'ni shariat olimlari va

tarixchilar ham Idris alayhissalom tirik va jannatda ekaniga inonadilar. Ana shu haqiqat tasdig'i uchun hazrat Navoiy oyati karimadan iqtibos keltiradi:

وَرَفَعْنَاهُ مَكَانًا عَلِيًّا

Ushbu oyat tarjimasi: "Biz uni yuksak martabaga ko'tardik". Tafsirda esa quyidagilarni o'qiyimiz: "Ya'ni, "Biz payg'ambarimiz Idrisning qadrini oliy, maqom-martabasini yuksak qildik". Ba'zi ulamolar ushbu oyatni tafsir qilib, u kishi oliy makon bo'lmish jannatni maskan tutgan, zero, bundan ham yuksak sharaf, martaba yo'q, deyishgan" [14, 210].

Umuman, Qur'oni karim oyatlari siyarnomadagi payg'ambarlar tarixiga oid ma'lumotlarning ta'sir kuchini oshirgan, badiiy quvvatini yuksaltirgan. Hazrat Navoiy qarashlarining kuchli asosga ega bo'lishini ta'minlagan.

Siyarnomada hadislardan nisbatan kamroq istifoda etilgan. Jumladan, Odam alayhissalom tarixida quyidagi hadis kelgan:

حَمَرْتُ طَيْبَةَ آدَمَ بِيَدَيَّ أَرْبَعِينَ صَبَاحًا

"Odamning loyini qirq tong (qudrat) qo'lim bilan qordim" mazmunidagi bu hadis Imom Abu Homid al-G'azzoliyning "Ihyou ulumid-din" kitobi, 6-jild 296-betida kelgan. Ammo ushbu hadisni buyuk muhaddis olim Imom Taqiyuddin As-Subkiy o'zining "Musnadi Subkiy" nomli hadis kitobining 6-jildi 374-betida: "Men bu hadisning sanadini bilmayman. Bu hadis zaifdir", degan.

Fir'avn qizining xizmatkori qaynab turgan qozonga tashlanayotganda, uning qo'lidagi chaqaloq onasiga mana bu hadisni aytadi:

اصبري يا أماء فقد وصلت الى الله و نلت رضاه و ليس الآن بينك و بين الجنة خطواته أو خطوتين

"Sabr qiling, ey onajon, Siz Allohga yaqinlashib, uning rizoligini topdingiz. Siz bilan jannat orasida ikki qadamgina qoldi". Bu hadis Sa'id ibn Vahb al-Qahtoniyy Yosir Fathiyning "Az-Zikr vad-dua val- ilaj bir-ruqo min al-kitabi vas-sunnah" kitobida kelgan.

Siyarnomada ushbu ikki hadis matni keltirilgan, xolos. Boshqa o'rinlarda hadislar matni uchramaydi. "Abdulloh ibn Umar roziyollohu anhumodan naql qilibdurlarkim" kabi iboralar bilan hadislariga ishora qilib ketilgan. Bunga o'xshash ishoralar asarning o'n bir o'rnida kelgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA (RESULTS AND DISCUSSIONS)

Asosan G'arb va rus adabiyotida xristian diniga doir asarlarga nisbatan qo'llangan "agiografiya" istilohining to'g'ridan to'g'ri Sharq-islom adabiyotiga tatbiq etilishi o'zini oqlamaydi. Holbuki, Sharq-islom adabiyotining shu yo'nalishdagi namunalarini mohiyat e'tibori bilan siyarnoma deb nomlash mumkin. Shu jihatdan, sharqshunos Bahodir Nazarovning "islom agiografiyasi" atamasini Bahouddin Naqshband maqomatlariga nisbatan ishlatgani munozara uyg'otadi va muhokamani taqozo etadi [10, 21]. Negaki, Bahouddin Naqshband maqomatlari xarakteri jihatidan islomiy-irfoniy mazmunni ifodalaydi. Ularga "agiografiya" emas, "siyarnoma" atamasi muvofiq keladi. Ana shu nuqtayi nazardan, Alisher Navoiyning "Tarixi anbiyo va hukamo" asari ham siyarnoma turkumiga mansubdir.

Yuqorida buyuk mutafakkirning "Tarixi anbiyo va hukamo" hamda "Tarixi muluki Ajam" asarlari, ulug' adib ijodiy rejasiga ko'ra, Muhammad alayhissalom qissasi, temuriylar, xususan, Sulton Husayn Boyqaro tarixi – barchasini birgalikda "Zubdat ut-

tavorix” deb nomlangan asarida jamlashni niyat qilgani to’g’risida fikr yuritildi. Biroq ayrim olimlar Alisher Navoiy “Muhokamat ul-lug’atayn” asarida tilga olgan “Zubdat ut-tavorix”ni alohida boshqa asar deb talqin etgani tushunarsiz. Jumladan, turk olimi Ogah Sirri Lavand “Alişer Nevai” asarida “Tarixi anbiyo va hukamo” hamda “Tarixi muluki Ajam” asarlarida qaysi mavzular yoritilgani haqidagi fikrlarini yozadi [1, 43-46]. Shundan so’ng anglashilmovchilik natijasida “Muhokamat ul-lug’atayn”da zikr etilgan “Zubdat ut-tavorix”ning “Mahbub ul-qulub”da eslanganini, uning alohida asar ekanini ta’kidlaydi. Holbuki, bular yanglish fikrlardir.

“Tarixi anbiyo va hukamo” garchi nasrda yozilgan bo’lsa ham payg’ambarlar va hakimlar qissalarining nazmda xulosalanishi asar uslubining o’ziga xosligini belgilaydi. Asardagi nasriy uslubni maxsus o’rgangan Qodirjon Ergashev chuqur ilmiy kuzitishlar olib borgani holda nima uchundir asar uslubini belgilashda she’riy matnlarning o’rni masalasini e’tibordan chetda qoldirgan. Holbuki, asardagi nazm namunalari nasriy matnni mukammallashtirishga, muallif ijodiy niyatini aniq-tiniq ifodalashga, payg’ambarlar qissasidan chiqadigan hissani anglashga, asardagi muayyan qismni xulosalashga xizmat qilgani jihatidan alohida ahamiyatga ega.

XULOSA.

Sharq-islom adabiyoti G’arb adabiy-estetik tafakkuridan farq qiladi. Bu farq diniy-ma’rifiy, ilohiy-irfoniy asarlarni baholash mezonlarida, ayniqsa, yaqqolroq namoyon bo’ladi. G’arb adabiyotshunosligida payg’ambarlar, xristian diniga e’tiqod qiluvchi rohiblar hayotiga doir asarlar “agiografiya” termini bilan atalib kelgan. Sharq-islom, shu jumladan, o’zbek mumtoz adabiyotidagi payg’ambarlar, avliyolar va shu toifadagi ulug’ shaxslarga bag’ishlangan asarlarni agiografiya istilohi bilan nomlash o’zini oqlamaydi. Bu adabiyotning islomiy-irfoniy mohiyati shu turdagi asarlarni siyarnoma deb atashni taqozo etadi.

Alisher Navoiyning “Tarixi anbiyo va hukamo” asari siyarnomaning mukammal namunasi sanaladi. Siyarnomada payg’ambarlar, valiyalar va hakimlarning hayot yo’li, siyrati hamda ular faoliyati bilan bog’liq barcha jihatlar qamrab olinishi e’tiborga olinsa, ushbu asar ana shu mezonlarga to’liq javob berish ayon bo’ladi.

“Tarixi anbiyo va hukamo” siyarnoma xarakteridagi badiiy-tarixiy nasr namunasidir. Asar boshqa siyarnomalar, jumladan, “Qisasi Rabg’uziy” bilan muayyan mushtarakliklarga ega bo’lsa ham, prinsipial jihatdan farq qilishini ta’qkidlash kerak. Alisher Navoiy asarida payg’ambarlar ikki guruhga: rasul va nabiy-larga ajratilgan. Shuningdek, payg’ambarlikning to’rt darajasi farqlangan: g’ayri mursal, mursal, ululazm, xotim.

Navoiyning “Tarixi anbiyo va hukamo” asari payg’ambarlar hayot yo’li muxtasar ifodalangani, voqealar saralanib, eng muhim ma’lumotlar jamlangani, yuksak badiiyati jihatidan Nosiruddin Rabg’uziyning “Qisasi Rabg’uziy”si va shu turdagi boshqa siyarnomalardan alohida ajralib turadi. Asar ijmol, ya’ni oz so’zda ko’p ma’no ifodalash usulida yozilgani bilan xarakterlanadi.

Siyarnomada shu turdagi asarlar taqozo etganidek, Qur’oni karim oyatlari va Hadisi shariflardan balog’at darajasida istifoda etilgan. Asar matnining oltmish uch o’rnida oyati karimalardan iqtiboslar olingan bo’lib, ular siyarnoma muallifi konsepsiyasi mukammal ifodalanishini ta’minlagan. Ikki o’rinda hadislar matni berilib, o’n bir joyda ularga ishoralar etilgani ham muallifning o’ziga xos yondashuv mezonidan dalolat beradi.

Asarda har bir payg'ambar qissasidan keyin "masnaviy", "ruboiy", "bayt", "she'r" va ba'zi o'rinlarda "nazm" nomi bilan ular mazmunini xulosalovchi, fikrlarning ta'sirli bo'lishini ta'minlovchi nazm namunalari berilgan. She'riy parchalar nasriy matnni boyitish, badiiyatini mukammallashtirish, muallif ijodiy niyatini aniq-tiniq ifodalash, payg'ambarlar qissasidan chiqadigan hissani anglatish kabi vazifalarni bajargani bilan qimmatlidir.

Umuman, buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiyning "Tarixi anbiyo va hukamo" asari nainki o'zbek adabiyotida, balki Sharq adabiyotida siyarnoma yo'nalishidagi asarlarning mukammal namunasi sifatida islomiy-irfoniy va badiiy-estetik tafakkur takomilida alohida o'rin tutadi.

Adabiyotlar

1. Ali Şir Nevai I. c. Hayatı, Sanatı ve Kişiliği. Ankara 1965 Türk Tarih Kurumu Basımevi. XVI + 307 say., 5 Resim. "Türk Dil Kurumu Yayınlarından-Sayı:239"
2. Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. /Тўла асарлар тўплами. Ўн жилдлик. Ўнинчи жилд. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2011.
3. Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. /Тўла асарлар тўплами. Ўн жилдлик. Саккизинчи жилд. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2011.
4. Alisher Navoiy. Tarixi muluki Ajam. /Alisher Navoiy kulliyoti. – Istanbul: Topkapi saroyi kutubxonasi, "Revan 808" nusxasi.
5. Al-Mo'jam al-Vasit. J.2. - Istanbul – Turkiya, Al-Maktabatul Islamiya, 1972. -S.467.
6. Ahmad ibn Muhammad ibn Ali al-Fayyumiy. Al-Misbah al-Munir fi g'orib al-Sharh al-Kabir. – J:1. – Bayrut: Maktaba al-Alamiyya, 2009.
7. James T. Palmer. Early mediyeval hagiography. – UK, 2018, Arc Humanities Press, Leeds.
8. Imom Alovuddin Abu Bakr Mas'ud ibn Ahmad Al-Kosoniy Al-Hanafiy. Badoius sano'i' fi tartibish sharoi'.7-jild. Bayrut: Dorul kutubil Ilmiya, 1986.
9. Muhammad ibn Muhammad ibn Adurrazzoq. Taj al-Urus. – J:12. – Quvayt: Tab'a al-Quvayt, 2006.
10. Назаров Б.Н. Ислом агиографияси тизимида мақоматнинг ўрни ва унинг бадий-услубий хусусиятлари (Баҳоуддин Нақшбанд мақоматлари асосида): филол. фан. д-ри... дисс. – Тошкент, 2000.
11. Рабғузий, Носируддин. Қисаси Рабғузий. – Тошкент: Ёзувчи, 1990.
12. Робинсон А.Н. Жития святых. /Краткая литературная энциклопедия. – Москва: Изд-во советская энциклопедия, 1964.
13. Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. – Toshkent: Tamaddun, 2018.
14. Xolid ibn Muhammad G'oys. Sohii al- Asar va Jamil al-Ibar min Siyrati xayr al-Bashar. – Jidda: Maktaba Rova'l al-Mumallika, 2010.
15. Шайх Усмонхон Темурхон Самарқандий. Тафсири Ирфон. 1, 3-жилдлар. – Тошкент: Sharq NMAK, 2019.
16. Эргашев Қ. Алишер Навоийнинг насрий услуби масалалари: Филол. фан. д-ри... дисс. – Тошкент, 2022.
17. Қаюмов А. Навоийнинг умумий тарихга доир бир китоби тўғрисида. //Адабий мерос. – Тошкент, 1983, 1 (25)-сон.
18. Ғаниева С. Навоий ёдга олган асарлар. – Тошкент, 2004.

NAVOYINING YIGITLIK LIRIKASIGA MANSUB MUSTAZODI

Nusratullo Jumaxo'ja Ataullo o'g'li,

Filologiya fanlari doktori, Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU professori.

E-mail: ataullo98@mail.ru

10.52773/tsuull.conf.navoiy.2025/YXKT5315

Annotatsiya. Ushbu maqola Alisher Navoiy ijod etgan lirik janrlardan biri – mustazodni o'rganishga bag'ishlangan. Maqolada birinchi marta Navoyining yoshlik lirikasiga mansub mustazodlar maxsus tadqiq etilmoqda. Tahlil obyekti sifatida Navoyining "Ilk devon"i va "Oqqo'yunli muxlislar devoni"da aks etgan mustazodlari tanlab olingan. Mustazodlarning ushbu devonlardagi ilk variantlari shoirning mukammal devonlaridagi variantlar bilan qiyosiy tahlil etilgan. Tahlil jarayonida Navoyining o'z asarlari ustida ijodiy ishlash jarayonlari ochib berilgan. Mustazodlarning ilk va mukammal variantlari o'rtasidagi ijodiy takomil (evolyutsiya) bosqichlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Mustazod, ijodiy takomil, ijodiy evolyutsiya, tadrijiy takomil, ilk variant, mukammal variant, ijodiy ishlov, poetika, badiiy mahorat, matn tahriri, muallif tahriri, xattotlar xatolari, noshirlar nuqsonlari, badiiy sayqaldorlik.

A MASTER OF NAVOI'S YOUTH LYRICS

Abstract. This article explores mustazod, a lyrical genre developed by Alisher Navoi, with a particular focus on its manifestation in the poet's early works. For the first time, the study specifically examines mustazods found in Navoi's youth poetry, analyzing those preserved in *Ilk Devon* and the *Divan of the Aq Qoyunlu Admirers*. These early versions are systematically compared with their counterparts in Navoi's complete devons, enabling a deeper understanding of the poet's creative process. Through this comparative analysis, the study uncovers the stages of textual refinement and artistic evolution in Navoi's poetry, highlighting the transformation of mustazods from their initial drafts to their final, fully developed forms.

Keywords: Mustazod, creative improvement, creative evolution, gradual improvement, first version, perfect version, creative processing, poetics, artistic skill, text editing, author's editing, calligraphers' mistakes, publishers' defects, artistic polish.

Alisher Navoyining "Oqqo'yunli muxlislar devoni"ga kirgan [Навойи 2021, 62-6 – 63-a] mustazodi shoirning yigitlik davri lirikasiga mansubdir. Shoirning "Ne vo'smavu ne kesmadur ul zulfi sumansoy" boshlanmali ilk mustazodida [Навойи 1968, 137-a-137-6] dunyoviy muhabbat mavzusi yoritilgan bo'lsa, o'smirlik yoshidan yigitlik davriga o'tgan Navoyida ilohiy muhabbatni kuylash salohiyati yuksalgan. Uning ikkinchi mustazodi to'lig'icha tasavvufiy talqin bilan yo'g'rilgan. Adabiyotshunos va tarjimashunos olim Z.Isomiddinov ushbu mustazodning zamonaviy nashrlariga asoslanib, uni Navoyining birinchi mustazodi deb hisoblaydi [Исомиддинов 2022, 150]. Bunda Navoyining norasmiy devonlari – "Ilk devon" va "Oqqo'yunli muxlislar devoni"dagi dastlabki mustazodlar inobatga olinmagan. Ammo Navoyining har qanday asari ilmiy o'rganilar ekan, asarlarining qo'lyozma shakldagi nusxalari, ijodiy takomil tarixi nazardan soqit qilinmasligi lozim.

Shoirning ushbu mustazodi Hamid Sulaymonning "Xazoyin ul-maoniy" lirik kulliyoti birinchi jildi [Навойи 1959, 671], Mukammal asarlar to'plami 1-tomi, 3-tomi

MUNDARIJA CONTENTS	
Shuhrat SIROJIDDINOV. Turkiy dunyo hamkorligining mustahkam asosi Туркі әлем ынтымақтастығының мықты негізі	7
Қанат БАЙБОЛОВ. Екі халық арасындағы бауырлық пен достық рәмізі Ikki xalq qardoshligi va do'stligi simvoli	11
I SHO'BA. ALISHER NAVOIY ADABIY MEROSINING JAHON TAMADDUNIDA TUTGAN O'RNI SECTION I. THE PLACE OF ALISHER NAVAII'S LITERARY HERITAGE IN WORLD CIVILIZATION	
Boqijon TO'XLIYEV. Nasimiy va Navoiy nazmi – badiiy tafakkurning yangi bazmi	15
Islam JEMENEY. Әлішер Навои	23
Yashar QOSIM. Dohiy Alisher Navoiyning ulug' izdoshi (Muhammad Fuzuliy sheiriyatida poetik in'ikos tarzining o'ziga xosligi)	35
Qodirjon ERGASHEV. Renessans adabiyotida etologik janr taraqqiyoti	42
Əlimuxtar MUXTAROV. Nizami Gencevi ve Alişir Navai'nin tür ruhu eserlerinin ve araştırmacılarının gözü ile	47
Roviyajon ABDULLAYEVA. Alisher Navoiy fenomeni yoxud Navoiy ijodining olamshumul ahamiyati	52
Насриддин НАЗАРОВ. Гуманизм и креативность в творчестве Наваи как фактор обеспечения связей между народами Евразии	60
Burobiya RAJABOVA. O'zbek navoiyshunoslari Jomiy haqida	67
Karomat MULLAXO'JAYEVA. Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy g'azallarida Yusuf (a. s.) siymosining badiiy talqinlari	77
Tozagul MATYOQUBOVA. Sharq adabiyotining yetuk tadqiqotchisi	82
Nosir JO'RABOYEV. Ikki turkman hukmdori ijodi va Alisher Navoiy	87
Молдасанов Е.М., АБДУВАЛИТОВ Н.Б. Әлем әдебиетінің асқар шыңы (Әлішер Науаидың 584 жылдығына орай)	95
Hulkar HAMROYEVA. Alisher Navoiy ijodida san'at talqini	99
Злиха ЖАНТАСОВА. Шығыс әдебиетінің қазақ фольклорындағы көрінісі	103
Sherxon QORAYEV. Alisher Navoiy Badaxshon shohi va shoir Sulton Muhammad La'liy ijodi tadqiqotchisi (Navoiy va uning zamondoshlari tazkiralari ma'lumotlari asosida)	109
Ahmad AKHLAQUE, Asror Allayarov. Alisher Navoi's creative works: a scientific exploration	115

Fayzulla ISKANDAROV, Dostonjon Tojiev. “Alisher Navoi international award”: establishment and historical significance for the turkic world	118
Diyora ABDUJALILOVA. Alisher Navoiy va Yahyobey Toshlijali dostonlarida shayx va avliyolar timsoli	124
Orifjon OLIMJANOV. Alisher Navoiy va Lorendeli Hamdiy “Layli va Majnun” dostonlari kompozitsiyasiga doir	131
II SHO‘BA. NAVOIY NAZMIY, NASRIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI SECTION II. ISSUES OF STUDYING NAVAIY'S POETRY, PROSE AND SCIENTIFIC HERITAGE	
Nurboy JABBOROV. Alisher Navoiy “Tarixi anbiyo va hukamo” asarining siyarnoma turkumida tutgan o‘rni	136
Nusratullo JUMAXO‘JA. Navoiyning yigitlik lirikasiga mansub mustazodi	149
Maqsud ASADOV. Alisher Navoiy “Tanbeh”larining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari (“Mahbub ul-qulub” asari misolida)	155
Dr. Kemal Yavuz ATAMAN. Ali Şir Nevaî beyitlerinde kulluk şuuru	160
Zuhriddin ISOMIDDINOV. Navoiyning “qaychi” g‘azali	165
Baxtiyor FAYZULLOYEV. Qo‘qon adabiy muhitida Navoiyga izdoshlik	170
Iqboloy ADIZOVA. Adabiy ta’sir va poetik tafakkurning yangilanishi	177
Nafas SHODMONOV, G‘iyosiddin SHODMONOV. Olti dostonida Odam Ato timsoli talqini	185
Faridaxon KARIMOVA. Xorazm adabiy muhitida debochanavislik an’analari	193
Islomjon YAQUBOV. O‘zaro ta’sir, ijodiy mushtaraklik va o‘ziga xoslik	200
Shavkat HAYITOV, Gulshod SHOYIMOVA. Alisher Navoiyning nabotot va hayvonot olamiga munosabati	205
Obidjon KARIMOV. Alisher Navoiy irfoniy olamining yangicha talqini	212
Gulbahor ASHUROVA. O‘zbek ayol shoiralari ijodida Alisher Navoiy obrazi tasvirlari	216
Qo‘ldosh PARDAYEV. Navoiy g‘azallariga Muqimiyning nazira va taxmislari	221
Ilyos ISMOILOV. Abror hayrati	226
Shermuhammad AMONOV, Abdulhaq RAHIMI. Alisher Navoiy mustazodiga bog‘langan muxammas haqida	229
Zilola AMONOVA, Shahlola SAFAROVA. “Farhod va Shirin” dostonidagi na’t boblarning manbalari va badiiyati	235
Abdulhamid QURBONOV. Badiiy matn va tasviriy vositalar mutanosibligi	242
Muqaddas TOJIBOYEVA. Abdulla Qodiriy romanlarida Alisher Navoiyga izdoshlik masalalari xususida	248
Orzigul HAMROYEVA. Radifning bayt kompozitsiyasidagi o‘rni	252

Ma'rifat RAJABOVA. Xalq maydon kulgi san'ati belgilarining Navoiy ijodidagi ko'rinishlari	256
Nodira SOATOVA. "Farhod va Shirin" dostoni – an'ana takomili, taraqqiysi hamda sintezi sifatida	260
Umida RASULOVA. "Alisher Navoiy" romanida obraz poetikasi	266
Marg'uba ABDULLAYEVA. Yetti sayyora: badiiy talqin va ilmiy dunyoqarash	269
Sohiba UMAROVA. Suyuma G'aniyeva – navoiyshunos	273
Zuhra MAMADALIYEVA. Alisher Navoiy "Xamsa"sida mirrix obrazining majoziylik xususiyatlari	277
Aziz RAJABIY. Alisher Navoiy g'azallarining ohang jilolari (Yunus Rajabiy musiqiy merosi misolida)	282
Zarif QUVONOV. "Hayrat ul-abror"ning yangi tadqiqatlari xususida	286
Farruxbek ABDALIYEV, Gulnoza OSMANOVA. "Xamsa"da "kampir" obrazi talqini	290
Nafisa RAXMANOVA. Ramziy-majoziy obrazlar ta'vili haqida mulohazalar	293
Kamola ULUG'MURODOVA. Navoiy nazmida Layli obrazining badiiy talqini	299
Mavluda ORTIQOVA. Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" asarida valiylarga xos sifatlar talqini	303
Jamila EISAR. Alisher Navoiyning she'riyatida oyina timsolining talqini ("G'aroyib us-sig'ar misolida")	308
Azizbek TOSHPO'LATOV. Alisher Navoiyga izdoshlik: Ahmad Tabibiy taxmislari	313
Sevara PARMONOVA. Tasavvufiy tazkiralari va Alisher Navoiy asarlarida Ibrohim Adham nomining zikr etilishi	318
III SHO'BA. ALISHER NAVOIY ASARLARINING MANBALARI VA MATNIY TADQIQI SECTION III. SOURCES AND TEXTUAL RESEARCH OF ALISHER NAVAI'S WORKS	
Dilnavoz YUSUPOVA, Umedullo MAHMUDOV. Alisher Navoiyning "Munshaoti Abdulloh Marvorid"dan o'rin olgan forsiy maktublari xususida	323
Manzar ABDULXAYROV. Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoni tabdillari tahlili	330
Dr. Farhad RAHIMI. Senglah Sözlüğünün Feraği Düzeltmeleri ve Feraği'den Yanlış ktarmaları Üzerine	335
Gholamreza RAZMI. Özbekistan'da yayimlanmiş iki Hayretü'l-ebrar'in tashih edilmiş metnindeki hatalarin sebeplerine bir bakiş	352
Altay NOORULLAH. Navoiy asarlarida tinish belgilarining yanglish ishlatilishi	365

Sevda BEHESHTI. Navai's Poetry as Reflected in Miniature Paintings (A study of Illustrated manuscripts preserved in Iranian collections)	376
Oysara MADALIYEVA. Alisher Navoiyning dastlabki ikki devoni Hamid Sulaymon nigohida	384
Dr. Siyamek HÜSSEYINALIZADE (Ergin Avşar). Amîr Alî Şîr Nevaî'nin şiirlerinde Şamanlığa aid Terimler ve ritüeller	395
Ozoda TOJIBOYEVA. Parij kulliyotidagi "Favoyid ul-kibar"ning matniy xususiyatlari	407
Husnigul JO'RAYEVA. Husayn Boyqaro – Husayniy adabiy merosining O'zbekistonda o'rganilishi	412
Dilnoza RUSTAMOVA. Alisher Navoiy toshbosma devonlaridagi ayrim g'azallar matnining qo'lyozma nusxalar bilan qiyosi	417
Erfan ESHGHÎNOUR. Fâni Divanındaki Avnî Divanından Tercüme Olunmuş Şiirler Üzerine	423
Lochinbek AHMADALIYEV. Po'latjon Qayyumiy tazkiralarda Alisher Navoiy faoliyatining yoritilishi	433
Dilnavoz SATTOROVA. Navoiy g'azallariga Sa'diy taxmislari	438
IV SHO'BA. ALISHER NAVOIY ASARLARINING XORIJIY TILLARGA TARJIMASI VA CHET ELLARDA O'RGANILISHI SECTION IV. TRANSLATION OF ALISHER NAVA'I'S WORKS INTO FOREIGN LANGUAGES AND STUDY ABROAD	
Hulkar HAMROYEVA, Shahlo NARALIYEVA, Ozodaxon MUSAYEVA. Qozog'istonda Mir Alisher Navoiy ijodining o'rganilishi	444
Abdulhay SOBIROV, Zamira DJURABAYEVA. "Muhokamat ul- lug'atayn" – turkiy xalqlar leksikasining so'nmas bulog'i	451
Münevver TEKCAN, Serpil Yazıcı ŞAHİN. Muhakamat al-lughatayn's literary and academic aspects.	455
Бермет ЗАКИРОВА, Дамилова НУРИЙЛА. Алишер Навоинин чыгармаларындагы тилдик каражаттар аркылуу студенттин кеп маданиятын өстүрүү	462
Nishonboy XUSANOV. "Hayrat ul-abror"dagi teonimlarning semantik va badiiy xususiyatlari	468
Mardon RAHMATOV. Qo'shma fe'l komponentlari inversiyasi	472
Rashid ZOHID. Hayot – firoq manzili	478
Shahlo HOJIYEVA. Alisher Navoiy badiiy kashfiyotlari – Cho'lpon estetik tafakkuri yangilanishi omili	482
Mo'minjon SULAYMONOV. Alisher Navoiy davrida isiriq solinganmi?	488
Abdumurod TILAVOV. Alisher Navoiy ma'naviy merosi va zamonaviy ta'lim	492
Nilufar RASULOVA. Alisher Navoiyning boqiy merosi jahon tillarida	497
Ozodaxon MUSAYEVA, Gulchehra SULTONOVA. "Muhokamat ul- lug'atayn" asaridagi turkiy fe'llar va omonim so'zlar tahlili	502

Iroda ISHONXANOVA. Alisher Navoiy hayoti va ijodining “Литература” darsliklarida aks etishi	505
Shahlo NARALIYEVA, Farrux ABDALIYEV. Hazrat Navoiy ijodida nutq madaniyati	514
АШИРОВА Т.К., КАРАЕВА Н.О., ЗАКИРОВА Б.А. Алишер Навоинин чыгармаларын санарип платформалар аркылуу жайылтуу	518
Dilorom YULDASHEVA, Shahlo NARALIYEVA. Alisher Navoiyning didaktik qarashlari	523
Komiljon ABDULLAYEV. Ta’lim tizimi bosqichlarida Alisher Navoiy hayoti va ijodini o’rgatishda fanlararo integratsiyadan foydalanish	527
Gulnoza YULDASHEVA, Sevinch UBAYDULLAYEVA. “Lison ut-tayr” dostonining ayrim morfemik xususiyatlari tahlili	531
Feruza DJUMANIYAZOVA. Alisher Navoiy ijodida milliy etnosport o’yinlari	534
Hamida JURAQOBILOVA. O’zbek she’riy matnlaridagi kognitiv metaforalarning fransuz tilida ifodalanishi	539
Abdug’ani NASRIDDINOV. Navoiyshunoslikda yangicha yondashuv	544
TEZISLAR ADABIYOTSHUNOSLIK	
AHMADOVA Shohsanam. Hofiz Xorazmiy va Alisher Navoiy ijodida zohid obrazi tasviri	550
ABDURAIMOVA Xafiza. Alisher Navoiy g’azaliyotida Doro obrazi talqinlari	553
ALIYEVA Sevinch. Anbiyolar haqidagi manbalarda Iso payg’ambar obrazi tasviri	556
ALMARDONOVA Aziza. Alisher Navoiy tarji’bandlarida dunyo ramzi	561
DEHQONOV Akramjon. Bir g’azal sharhi	564
DOLIMOV Shokir. «Hayrat ul-abror» dostoni sharhining rus tiliga tarjimai xususida	567
GAFUROVA Shaxnoza. Navoiy me’rojnoma baytlarida qo’llangan badiiy san’atlar	569
IBOTOVA Madina. Alisher Navoiy g’azallarida jon va ishq munosabatining badiiy ifodasi	572
MEYLIYEV Xudoyberdi. Navoiy va zamondoshlari asarlarida Mirzo Mironshoh saroyi adabiy muhiti va shoir Lutfulloh Nishopuriy ijodiy faoliyatining yoritilishi	576
MUQUMOVA Surayyo. “Nasoyim ul-muhabbat”: ism, xosiyat va xususiyat	579
NASRULLAYEV Elmurod, SIROJIDDINOVA Sevinch. Xalq og’zaki ijodida Navoiy timsoli talqini	581

NURULLAYEVA Hulkaroy, MAMADALIYEVA Madina. Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarini o‘qitish bo‘yicha ayrim mulohazalar	584
OLIMJONOV Davronbek. “Boburnoma” asarida tarixiy shaxslar tavsifi (Alisher Navoiy shaxsi misolida)	587
PARDAYEVA Nigora, PIRNAZAROVA Barno. Navoiy lirikasida kichik lirik janrlar	589
SHOMURODOV San‘at. Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlari isajon sulton talqinida	593
TO‘XTAMURATOV Furqat. Alisher Navoiy g‘azaliga Muhsiniy tatabbu’si	596
TURDIYEVA Maftuna. “Layli va Majnun” dostonlari kompozitsiyasidagi ba’zi farqli jihatlar	599
UMAROVA Dildor. Alisher Navoiy asarlarida sukut go‘zalligi ifodasi	602
UMAROV Sardorbek. Ma’rifatning haqiqati – hayratdir	604
YANGIBOYEV Shavkat. Ito haqida	607
TILSHUNOSLIK	
YULDASHEVA Dilorom. Alisher Navoiy asarlarida rang-tus ifodalovchi birliklar	611
AXMADJANOVA Malika. Alisher Navoiy va o‘zbek tilining boyitilishi: ilmiy metodlar va uslublar	613
AKBAROVA Zulfizargul. Alisher Navoiy asarlarida qo‘llanilgan antonimlik hosil qiluvchi “Ahl” komponentli lug‘aviy birliklar tahlili	617
YUSUPOVA Dildora. Alisher Navoiy asarlarida qimmatbaho tosh nomlari	619
MUNDARIJA	622